

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023- yilda Buxoro viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 53 232,3 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022- yil bilan taqqoslaganda 5,2 % ga o'sdi.


YAHM deflyator indeksi 2022- yil narxlariga nisbatan 109,7 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Buxoro viloyatining qo'shgan hissasi 5,0 % ga yetdi.

2023- yilda Buxoro viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot



- YAHM o'sish sur'ati
- YAHM hajmi
- YAHM deflyator indeksi
- YAIMga qo'shgan hissasi



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

	Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilga nisbatan % da
	2022- yil	2023- yil	
I. YAHM, jami	46 126,2	53 232,3	105,2
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	44 091,4	51 154,5	105,1
mahsulotlarga sof soliqlar	2 034,8	2 077,8	106,5
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	44 091,4	51 154,5	105,1
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	19 430,1	22 178,8	104,0
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	11 554,3	13 519,8	106,5
sanoat	8 003,1	9 369,8	106,1
qurilish	3 551,2	4 150,0	107,5
xizmatlar	13 107,0	15 455,9	105,6
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	3 251,0	3 832,2	106,2
tashish va saqlash, axborot va aloqa	2 302,1	2 814,6	109,4
boshqa xizmat tarmoqlari	7 553,9	8 809,1	104,3



Quyida keltirilgan infografikadan ko'rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 26 262,9 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 3,4 % ga yuqoridir.

Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi (ming so'mda)



Aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o'sish sur'atlari (o'tgan yilga nisbatan % hisobida)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

	2022- yil	2023- yil
I. YAHM, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	95,6	96,1
mahsulotlarga sof soliqlar	4,4	3,9
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	44,1	43,4
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	26,3	26,4
sanoat	18,2	18,3
qurilish	8,1	8,1
xizmatlar	29,6	30,2
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	7,4	7,5
tashish va saqlash, axborot va aloqa	5,2	5,5
boshqa xizmat tarmoqlari	17,0	17,2




2023- yilda hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 96,1 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 3,9 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 43,4 %ni, sanoat tarmog‘i 18,3 % ni, qurilish 8,1 % ni va xizmatlar sohasi 30,2 % ni tashkil qildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2022- yil



2023- yil




● Yalpi qo‘shilgan qiymat

● Mahsulotlarga sof soliqlar

YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 1,7 f.p. (2022- yilda -1,7 f.p.), sanoat tarmog'i - 1,0 f.p. (2022- yilda - 0,9 f.p.), qurilish tarmog'i - 0,6 f.p. (2022- yilda - 0,1 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi - 1,6 f.p. (2022- yilda - 2,0 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.


Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,3 f.p. (2022- yilda -0,3 f.p.)ga ko'paydi.

2023- yil uchun YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)




2023- yilda YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 104,0 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 43,4%), sanoatda – 106,1% (18,3 %), qurilishda – 107,5 % (8,1 %), xizmatlar sohasida – 105,6 % ni (30,2 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 106,2 % (7,5 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 109,4 % (5,5 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 104,3 % dan (17,2 %) iborat bo'ldi.

YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilga nisbatan % da)



2023- yilda YAHM deflyatori indeksi 2022- yildagi narxlarga nisbatan 109,7 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari xizmatlarda– 111,6 % va sanoatda– 110,4 % qayd etildi.

YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilga nisbatan % da)



2023- yilda kichik tadbirkorlik 36 658,6 mlrd. soʻmni tashkil etdi (2022- yilda – 31 961,1 mlrd. soʻm). YAHMdagi ulushi 71,7 % ni (2022- yilda – 72,5 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining oʻtgan yilga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bogʻliq.

Kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)

Hajmi, mlrd.soʻm

Ulushi, % da

2022- yil

31 961,1

72,5 %

2023- yil

36 658,6

71,7 %

